TOSHKENT VILOYATI NURAFSHON SHAHRI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 5-noyabr | 269-10-213-Q/24 | Nurafshon shahar hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan hamda mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2025-yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktabrdagi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi qonunining 9-bob, 38-, 39-, 40-, 41- va 42-moddalariga asosan, O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunining 30-43-moddalari, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 965-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 21-dekabrdagi PQ-401-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan hamda mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun shaharda 2025-yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida,

QAROR QILINDI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi qonunining 12-13-moddalariga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun shahardagi korxonalar, tashkilotlar va muassasalar uchun xodimlarning ro‘yxati bo‘yicha o‘rtacha sonidan 131 kishini tashkil etadigan 6 foizgacha kiritish belgilansin.

14 yoshga to‘lmagan bolalari va nogiron bolalari bor yolg‘iz hamda ko‘p bolali ota-onalar uchun 61,8 foiz – 81 kishi;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilar uchun 30,5 foiz – 40 kishi;

safarbarlik chaqiruvi zaxirada xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar 2,3 foiz – 3 kishi;

nogironlar uchun 2,3 foiz – 3 kishi;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanishidan ozod qilingan shaxslar uchun 2,3 foiz – 3 kishi;

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlanganlar 0,8 foiz – 1 kishi miqdorida ish o‘rinlari zaxirasi belgilansin.

2. 2025-yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2025-yil uchun band qilib qo‘yish lozim bo‘lgan korxona, tashkilot, muassasalar ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlariga:

ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ish bilan ta’minlash uchun belgilangan muddatlarda kvota ish joylari umumiy miqdorining kamida 25 foizi uchun, 2025-yilning 10-aprelidan kechikmagan holda ish joylarining qolgan qismi - 75 foizini (ajratish yoki band qilib qo‘yish) barpo etish, har bir kvota toifasi bo‘yicha ish o‘rinlari band qilib qo‘yiladigan kasblar va lavozimlar, mutaxassisliklar kesimidagi ma’lumotlarni va mazkur qaror ijrosi bo‘yicha chiqarilgan buyruq nusxalarini shahar kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

4. Ish o‘rinlari band qilingan korxona va tashkilotlar tomonidan 2025-yil 1-aprelga qadar band qilingan ish o‘rinlarini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-sentabrdagi 263-sonli qaroriga asosan belgilangan tartibda attestatsiyadan o‘tkazilishi amalga oshirilsin.

5. Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish joylarining ko‘rsatib o‘tilgan miqdorini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risidagi Nizomga muvofiq belgilangan muddatlar va tartibda yaratilishini (ajratilishi yoki band qilib qo‘yilishini) hamda ish joylari sharoiti sanitariya-gigiyena normalariga

va xodim o‘z majburiyatlarini to‘siqlarsiz bajarishini ta’minlaydigan mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishini ta’minlasinlar.

6. Ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda eng kam oylik ish haqining 2 baravari miqdorida O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan haq to‘lab berilishi belgilab qo‘yilsin.

7. Ushbu qaror ijrosi bajarilmagan taqdirda korxona, tashkilot va muassasalarning mansabdor shaxslariga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risidagi Nizomning 21-bandiga muvofiq ma’muriy javobgarlikka tortilishi to‘g‘risida ogohlantirilsin.

8. Shahar kambag’allikni qisqartirish va bandligiga ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i I.Shermatov joriy yilning 20-oktabr kunidan kechiktirmasdan mazkur qarorni tegishli korxona va tashkilot rahbarlariga yetkazsin hamda uning bajarilishi ustidan qat’iy nazoratni ta’minlasin.

9. Shahar hokimining 2023-yil 3-noyabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2024-yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida”gi 255-10-213-Q/23-sonli qarori 2024-yil 31-dekabrdan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

10. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari A.Eshbayev zimmasiga yuklansin.

Shahar hokimi **I.Klichxanov**

Nurafshon shahar hokimining
2024-yil 5-noyabrdagi
269-10-213-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Nurafshon shahri boʻyicha 2025-yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qoʻyilgan ish oʻrinlariga ishga joylashtirish boʻyicha

MANZILLI JADVAL

№	Shahar nomi	Topshiriq belgilangan korxona nomi	Korxona INN raqami	Korxonada ishlovchi xodimlar soni	Jami band qilingan ish oʻrinlari soni	shu jumladan:								
						14 yoshga toʻlmagan bolalari,nogironligi boʻlgan bolalari bor yolgʻiz otaga yoki onaga, shuningdek koʻp bolali onalarning ota-onalariga	Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus ta'lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega boʻlgan yoshlar,' "Mehribonlik" uylariniing bitiruvchilari, shuningdek oliy ta'lim muassasalarining davlat grandlari boʻyicha ta'lim olgan bitiruvchilari	Muddatli harbiy xizmatan boʻshatilganlar	Nogironlar uchun	Pensiya yoshidagi shaxslar uchun	Jazoni oʻtash muassasalaridan yoki sudning qaroriga koʻra tibbiy tusdagi majburlov choralari qoʻllanilgan shaxslar uchun	Odam savdosi qurboni uchun	Atrofdagilar uchun xavf tugʻdirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar hamda qonun hujjatlarga muvofiq boshqa shaxslar uchun	"Oilaviy (maishiy) zoʻravonlikdan jabrlanganlar"
1	Nurafrshon shahri	Nurafshon shahri maktabgacha va maktab ta'limi boʻlimi	207268336	35	3	2	1							
2	Nurafrshon shahri	Nurafshon shahri Obodonlashtirish boshqarmasi	207268580	115	9	4	2		1		2			
3	Nurafrshon shahri	Nurafshon shahri bolalar va oʻsmirlar sport maktabi	305416957	29	2	1	1							
4	Nurafrshon shahri	Nurafshon shahari tibbiyot birlashmasi	207331449	301	13	7	3		1		1			1
5	Nurafrshon shahri	"TEXTILE MILL TASHKENT" masʻuliyati cheklangan jamiyati	301887952	335	14	9	4	1						
6	Nurafrshon shahri	"RADIANTE TEKSTILE" masʻuliyati cheklangan jamiyati	306693463	295	14	9	4	1						
7	Nurafrshon shahri	Nurafshon shahri Veterinariya bo"imi	207268565	20	1	1								
8	Nurafrshon shahri	1-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	203350032	65	3	2	1							

9	Nurafrshon shahri	13-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	203331633	46	3	2	1							
10	Nurafrshon shahri	32-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	203331672	30	3	2	1							
11	Nurafrshon shahri	10-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	203331593	69	3	2	1							
12	Nurafrshon shahri	57-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	203331744	78	3	2	1							
13	Nurafrshon shahri	26-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	203354880	43	3	2	1							
14	Nurafrshon shahri	4-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206901300	40	3	2	1							
15	Nurafrshon shahri	19-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206901404	27	2	2								
16	Nurafrshon shahri	25-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206901443	41	3	2	1							
17	Nurafrshon shahri	48-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	203331704	42	3	2	1							
18	Nurafrshon shahri	162sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206901704	32	3	2	1							
19	Nurafrshon shahri	73-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206901790	30	3	2	1							
20	Nurafrshon shahri	9-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206910646	64	3	2	1							
21	Nurafrshon shahri	6-sonli maktabgacha ta’lim muassasasi	310228248	30	2	1	1							
22	Nurafrshon shahri	12-sonli maktabgacha ta’lim muassasasi	207011521	38	2	1	1							
23	Nurafrshon shahri	3-sonli maktabgacha ta’lim muassasasi	306029543	26	1									
24	Nurafrshon shahri	7-sonli maktabgacha ta’lim muassasasi	207032844	34	2	1	1							
25	Nurafrshon shahri	11-sonli maktabgacha ta’lim muassasasi	207034406	28	1	1								
26	Nurafrshon shahri	14-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	207032890	36	2	1	1							
27	Nurafrshon shahri	18-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	207033684	40	2	1	1							
28	Nurafrshon shahri	26-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	207032908	36	2	1	1							
29	Nurafrshon shahri	22-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	306357856	30	2	1	1							
30	Nurafrshon shahri	16-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	207220088	35	2	1	1							
31	Nurafrshon shahri	Respublika tez tibbiy yordami markazi Toshkent viloyati filiali	309937567	92	10	6	2	1	1					

32	Nurafrshon shahri	O'zbekiston Davlat filarmoniyasi Toshkent viloyati bo'linmasi	305924301	38	2	1	1							
33	Nurafrshon shahri	4-maktabgacha ta'lim muassasasi	308654991	21	2	2								
34	Nurafrshon shahri	MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI NURAFSHON FILIALI DAVLAT MUASSASASI	308871177	48	3	2	1							
35	Nurafrshon shahri	Barkamol avlod bolalar maktabi davlat muassasasi	207125735	31	2	1	1							
	Jami:			**1238**	**83**	**51**	**27**	**1**	**2**		**2**			